



Xasan YARBAEV,
Guliston davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi
E-mail: yarbayevhasan@gmail.com

GulDU professori, f.f.n R.Maxmudov taqrizi asosida

PHILOSOPHICAL AND LEGAL ANALYSIS OF THE CONCEPT OF JUSTICE AND CONTEMPORARY APPROACHES

Annotation

The article examines the historical-philosophical development of the concept of justice and its contemporary interpretations. Justice is one of the oldest and most stable categories of human thought, positioned at the core of political, legal, and ethical processes. In antiquity, justice was linked to the common good of the polis and social hierarchy; in the Early Modern period it was framed through natural rights and individual liberty. In the twentieth century, debates on justice centered on issues of freedom, equality, and distribution. In contemporary scholarship, the capabilities approach has become prominent, connecting justice to people’s quality of life, the extent to which real opportunities can be exercised, and the inclusivity of social institutions.

Key words: Justice, law, liberty, equality, general will, capabilities approach, liberalism, communitarianism.

ФИЛОСОФСКО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПЦИИ СПРАВЕДЛИВОСТИ И СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ

Аннотация

В статье освещаются историко-философская эволюция понятия справедливости и его современные интерпретации. Справедливость – одна из древнейших и устойчивых категорий человеческой мысли, находящаяся в центре политических, правовых и этических процессов. В античную эпоху справедливость связывали с общим благом полиса и иерархией, в Новое время она трактовалась через понятия естественного права и личной свободы. В XX веке в обсуждении справедливости центральное место заняли проблемы свободы, равенства и распределения. В современных подходах ведущую роль играет «подход возможностей», связывающий справедливость с качеством жизни человека, степенью реализации реальных возможностей и инклюзивностью социальных институтов.

Ключевые слова: Справедливость, право, свобода, равенство, общая воля, подход возможностей, либерализм, коммунитаризм.

ADOLAT KONSEPSIYASINING FALSAFIY-HUQUQIY TAHLILI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Аннотация

Maqolada adolat tushunchasining tarixiy-falsafiy rivojlanishi va uning zamonaviy talqinlari yoritiladi. Adolat insoniyat tafakkurida eng qadimiy va barqaror kategoriyalardan biri bo‘lib, siyosiy, huquqiy va axloqiy jarayonlarning markazida turadi. Antik davrda adolat polisidagi umumiy yaxshilik va ierarxiya bilan bog‘langan bo‘lsa, Yangi Yevropa davrida u tabiiy huquq va shaxs erkinligi tushunchalari orqali talqin qilindi. XX asrda adolat masalasida erkinlik, tenglik va taqsimot muammolari markaziy o‘rin egalladi. Zamonaviy yondashuvlarda esa “imkoniyatlar nazariyasi” yetakchi o‘rin tutib, adolatni insonning hayot sifati, real imkoniyatlardan foydalanish darajasi va ijtimoiy institutlarning inklyuzivligiga bog‘laydi.

Kalit so‘zlar: Adolat, huquq, erkinlik, tenglik, umumiy iroda, imkoniyatlar nazariyasi, liberalizm, kommunitarizm.

Kirish. Adolat tushunchasi qadimdan buyon falsafa, siyosatshunoslik va huquqshunoslikning markazida turgan. U jamiyatdagi erkinlik, tenglik va farovonlikni ta’minlashning asosi sifatida talqin qilinib kelgan. Platon, Aristotel va Tsitseron qarashlaridan boshlab, adolat ijtimoiy tizimlarni tashkil etuvchi markaziy tamoyil sifatida shakllandi. Yangi Yevropa mutafakkirlari (Hobbs, Lokk, Kant, Russo) adolatni tabiiy huquq va erkinliklar bilan bog‘lab izohlashga o‘tishdi. XX asrda Roulz va Nozik adolatga yangicha yondashuvlarni taqdim etib, zamonaviy siyosiy-falsafiy diskursni shakllantirdilar. Bugungi kunda esa Sen va Nussbaumning imkoniyatlar nazariyasi adolatni insoniy rivojlanish va hayot sifati o‘lchovchi konsepsiya sifatida yangicha talqin qilmoqda.

Mazkur masalaning dolzarbligi shundaki, adolatlilik – huquqiy davlat qurilishining, fuqarolik jamiyati rivojining va inson huquqlarining kafolati hisoblanadi. Erkinlik va tenglikni birlashtira olmagan jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash mushkul bo‘ladi. Shuning uchun ham adolat tushunchasi nafaqat falsafiy-abstrakt kategoriya, balki ijtimoiy taraqqiyotning real mezoni sifatida qaraladi. Zamonaviy yondashuvlarda adolat inson imkoniyatlarini kengaytirish,

ularning huquqiy va ma’naviy himoyasini ta’minlash bilan bog‘liq bo‘lib, bu xalqaro tashkilotlar, davlat siyosati va ijtimoiy institutlar faoliyatida ustuvor masalaga aylanoqda.

Bugungi, globallashuv, axborot texnologiyalarining rivoji, iqtisodiy nomutanosiblik va ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi sharoitida adolat tushunchasi nafaqat nazariy, balki amaliy zarurat sifatida ham oldingi qatorga chiqmoqda. Milliy va global miqyosda adolatamoyillariga rioya qilinmasligi ijtimoiy norozilik, siyosiy beqarorlik va madaniy qarama-qarshiliklarga sabab bo‘lmoqda. Shu bois, adolatni qayta talqin qilish va uni universal qadriyat sifatida mustahkamlash har bir davlatning barqaror taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, adolat konsepsiyasi tarix davomida turli paradigmalarda talqin qilingan: Platon jamiyat qatlamlari uyg‘unligiga, Aristotel proporsional tenglikka, Tsitseron esa tabiiy huquq va kosmopolit axloqqa urg‘u beradi; o‘rta asr Sharqida Forobiy (fozil jamiyat), Ibn Sino (axloqiy kamol), G‘azzoliy (shariat–axloq–ma’rifat uyg‘unligi) va Ibn Xaldun (zulum–barqarorlik) masalani ma’naviy-huquqiy poydevorda sharhlaydi, G‘arbda Avgustin va Foma Akvinskiy adolatni

ilohiy tartib va "umumiy va alohida adolat" farqlari orqali tizimlashtiradi. Yangi Yevropada Hobbs adolatni shartnoma va suverenlikka, Lokk tabiiy huquqlarga, Russo "umumiy iroda"ga, Kant esa erkinlikni huquqiy tartibda universalashtirishga bog'laydi. XX asrda Roulz "halollik" tamoyillari bilan distributiv adolatni, Nozik esa minimal davlat va huquqlar daxlsizligini asoslaydi; kommunitar tanqid jamoa qadriyatlarini ilgari suradi. Zamonaviy oqimda Sen-Nussbaum "imkoniyatlar yondashuvi" adolatni hayotiy imkonlar va salohiyatni ro'yobga chiqarish darajasi bilan o'Ichashni taklif etadi. Bo'shliqlar asosan o'Ichov va institutsional dizayn (global/raqamli adolat, eng zaif qatlamlar manfaatini kafolatlash)da qolmoqda; ushbu maqola ana shu nazariy yondashuvlarni mintaqaviy siyosatga tatbiq etish uchun qisqa indikativ ramka taklif qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada falsafiy-huquqiy tadqiqot metodlari qo'llanildi. Birinchidan, tarixiy-falsafiy tahlil asosida antik davrdan tortib zamonaviy davrgacha adolat tushunchasining shakllanish jarayoni ko'rib chiqildi. Ikkinchidan, komparativ metod orqali Platon, Aristotel, Hobbs, Lokk, Russo, Kant, Roulz, Nozik, Sen va Nussbaum qarashlari o'zaro taqqoslandi. Uchinchidan, normativ-huquqiy tahlil usuli yordamida adolatning huquqiy davlat, erkinlik va inson huquqlari konsepsiyalari bilan uzviy bog'liqligi yoritildi. To'rtinchidan, aksiologik yondashuv orqali adolatning axloqiy qadriyat sifatidagi o'rni va uning ijtimoiy barqarorlikka ta'siri tahlil qilindi. Tadqiqotning metodologik asosini klassik (Platon, Aristotel, Kant), zamonaviy (Roulz, Nozik) va postklassik (Sen, Nussbaum) falsafiy-huquqiy konsepsiyalar uyg'unligi tashkil etdi.

Tahlil va natijalar. Antik davrda Platon adolatni jamiyat qatlamlarining o'ziga xos vazifalarini bajarishi bilan izohladi[1]. Uning nazarida, jamiyatning mukammal ishlashi uchun har bir sinf – faylasuflar, qo'riqchilar va ishlab chiqaruvchilar – o'z vazifasini sodiqlik bilan bajarishi lozim. Aristotel esa Platonning konsepsiyasini amaliyotga yaqinlashtirib, proporsional tenglik tamoyilini ilgari surdi. Unga ko'ra, adolat "tenglarga tengni, teng bo'lmaganlarga tengsizni berish"da namoyon bo'ladi[2]. Bu esa adolatni abstrakt g'oya emas, balki real ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi prinsip sifatida ko'rsatadi. Tsitseron esa yunon an'alaridan o'zga yo'ldan borib, adolatni tabiiy huquq va kosmopolitik axloqiy meyorlar bilan bog'ladi[3]. Uning nazarida, adolat butun insoniyatni yagona axloqiy hamjamiyat sifatida birlashtiradi va shu orqali global miqyosda huquqiy tartibning asosi bo'lib xizmat qiladi.

O'rta asr Sharq mutafakkirlari adolatni asosan diniy-ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'unlikda talqin qildilar. Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida adolatni fozil jamiyatning asosiy tamoyili sifatida ko'rsatdi[4]. Uning fikricha, hukmdor donishmand bo'lishi, adolat esa davlat boshqaruvi va insoniy fazilatlarining uyg'unligida ifodalanishi kerak. Ibn Sino esa axloqiy-ruhiy barkamollikni jamiyat barqarorligining garovi deb bilib, adolatni shaxsning o'z nafsini nazorat qila bilishi bilan bog'ladi[5]. Abu Homid G'azzoliy "Ihyo ulumiddin" asarida adolatni shariat, axloq va ma'rifat uyg'unligida talqin qilib, uni zulmning qarama-qarshisi sifatida izohladi[6]. Ibn Xaldun esa adolatni davlatning barqarorligi va iqtisodiy hayotning asosi sifatida ko'rib, "zulm saltanatni yemiradi" degan mashhur g'oyani ilgari surdi[7]. Sharq mutafakkirlari uchun adolat – bu nafaqat huquqiy tartib, balki ma'naviy-axloqiy uyg'unlik, ijtimoiy barqarorlikning poydevori edi.

O'rta asr G'arb mutafakkirlari ham adolatni diniy-falsafiy asosda sharhladilar. Avreliy Avgustin "Xudoning shahri" asarida adolatni ilohiy tartib va Xudoning irodasiga muvofiqlikda ko'rdi[8]. Unga ko'ra, insoniy davlat faqat adolat orqali mavjud bo'lishi mumkin. Foma Akvinskiy esa Aristotelning g'oyalarini xristianlik bilan uyg'unlashtirib,

adolatni asosiy axloqiy fazilatlaridan biri deb bildi[9]. U adolatni ikki shaklda – umumiy (ijtimoiy adolat) va alohida (insonlar o'rtasidagi munosabatlardagi adolat) tarzida talqin qildi. G'arb scholastik tafakkurida adolat Xudoning qonunini inson hayotida ro'yobga chiqaruvchi prinsip sifatida qabul qilindi.

Yangi Yevropa davrida adolat tushunchasi yangi mazmun kasb etdi. Tomas Hobbs uni ijtimoiy shartnoma va suveren hokimiyatga bo'ysunish orqali izohladi. Uning fikricha, tabiiy holatda insonlar o'rtasida "hammaning hamma bilan urushi" hukmron bo'ladi va faqat suveren hokimiyatgina bunday tartibsizlikka barham bera oladi[10]. Shuning uchun Hobbs nazarida adolat – bu qonunlarga itoat qilishdir. Jon Lokk esa buning aksini ta'kidlab, adolatni tabiiy huquqlar – hayot, erkinlik va mulkni himoya qilish bilan bog'ladi[11]. Unga ko'ra, davlatning asosiy vazifasi insonning tabiiy huquqlarini saqlash va rivojlantirishdan iborat bo'lib, adolat ham aynan shu tamoyillarga asoslanadi. Jan-Jak Russo adolatni "umumiy iroda" konsepsiyasi orqali talqin qilib, erkinlik va tenglikni uyg'unlashtirishga harakat qildi[12]. Unga ko'ra, inson jamiyat qonunlariga bo'ysunarkan, aslida o'z irodasiga bo'ysunadi, chunki qonun umumiy irodaga asoslangan bo'ladi. Immanuel Kant esa huquqni erkinlikni tartibga soluvchi mutlaqadriyat sifatida ko'rsatdi[13]. Uning nazarida, adolat – bu erkinlikni cheklash emas, balki uni universal qonuniyatlar asosida uyg'unlashtirishdir.

XX asrda adolat tushunchasi yanada murakkablashdi. Jon Roulz o'zining mashhur "Adolat nazariyasi" asarida adolatni "halollik" sifatida talqin qilib, uch asosiy tamoyilni ilgari surdi: 1) har bir kishi uchun maksimal asosiy erkinliklarni kafolatlash, 2) imkoniyatlar tengligini ta'minlash va 3) differensial tamoyil, ya'ni ijtimoiy tengsizlik faqat eng kam ta'minlanganlar foydasiga bo'lsa, oqlanishi mumkin[14]. Robert Nozik esa bunday yondashuvni tanqid qildi va minimal davlat konsepsiyasini ilgari surdi. Unga ko'ra, adolat – bu erkin almashinuv va shaxsiy huquqlarning daxlsizligini ta'minlashdir, har qanday qayta taqsimot adolatsizlikdir[15]. Shu tariqa, Roulz va Nozik o'rtasidagi bahs liberal va libertarian paradigmalarning asosini belgilab berdi.

1980-yillarda bu munozaraga kommunitarizm ham qo'shildi. Liberalizm shaxsiy huquqlar ustuvorligini ta'kidlagan bo'lsa, kommunitarizm jamoaviy qadriyatlar va umumiy yaxshilikni asosiy tamoyil sifatida ilgari surdi. Alasdair Macintyre kabi faylasuflar zamonaviy jamiyatlarda axloqiy qadriyatlarining parchalanishini tanqid qildilar va fazilatga asoslangan ijtimoiy tartibga qaytishni talab qildilar[16]. Bu davrda adolat haqidagi bahslar nafaqat nazariy, balki siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etdi.

Bugungi kunda esa Amartiya Sen va Marta Nussbaum nazariyalari adolat konsepsiyasini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ularning imkoniyatlar yondashuviga ko'ra, jamiyatning adolatli yoki adolatsizligi odamlarning o'z hayotiy funksiyalarini amalga oshira olish qobiliyati bilan belgilanadi. Nussbaum insonning o'nta asosiy imkoniyatini sanab o'tib, ularni ta'minlamasdan turib hech bir jamiyatni adolatli deb bo'lmashligini ta'kidlaydi[17]. Sen esa adolatni insonning "hayot sifati" bilan bog'lab, adolatni natijalardan ko'ra imkoniyatlarga tayanish zarurligini ilgari suradi[18]. Shu bois, zamonaviy davrda adolat endi nafaqat huquqiy kategoriya, balki ijtimoiy rivojlanishning, insoniy salohiyatni ochib berishning universal mezoniga aylanmoqda.

Xulosa va takliflar. Adolat tushunchasi tarixiy jarayonlar davomida turlicha talqin qilingan bo'lsa-da, uning mohiyati doimo inson erkinligi va tengligini ta'minlashga qaratilgan. Antik davrda adolat polisidagi umumiy yaxshilik, ijtimoiy uyg'unlik va qatlamlarning o'z vazifalarini bajarishi bilan bog'liq bo'lgan. Bu yondashuv jamiyat barqarorligini ta'minlash uchun ierarxik tartib va umumiy manfaatni ustuvor

qo'ydi. Yangi Yevropa mutafakkirlari esa adolatni huquq va tabiiy erkinlik kategoriyalari orqali izohlashga o'tib, shaxsiy huquqlar, erkinlik va mulk daxlsizligini markazga qo'ydilar. Shu tariqa, adolatning mazmuni ilohiy yoki ijtimoiy yaxshilikka bog'liq qadimiy talqindan insonning tabiiy huquqlarini himoya qilishga qaratilgan modern tushunchaga o'tdi.

XX asrda Jon Roulz va Robert Nozikning nazariyalari zamonaviy adolat diskursini shakllantirib, bir-biridan farqli yondashuvlarni ilgari surdi. Roulz adolatni "halollik" sifatida talqin qilib, teng imkoniyat va ijtimoiy tengsizliklarning eng zaif qatlamlar foydasiga oqlanishini nazariy asoslab berdi. Nozik esa minimal davlat g'oyasini ilgari surib, adolatni erkin almashinuv va huquq daxlsizligida ko'rdi. Hozirgi kunda esa Amartiya Sen va Marta Nussbaumning imkoniyatlar nazariyasi adolatni insoniy rivojlanish va hayot sifatining o'lchovi sifatida talqin qilmoqda. Ularning yondashuvi shuni ko'rsatadiki, adolat nafaqat huquqiy meyorlar bilan, balki insonning real hayotiy imkoniyatlari, salohiyatini ro'yobga chiqarish darajasi bilan belgilanadi. Shunday qilib, adolat zamonaviy davrda global ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va barqaror taraqqiyotning ham asosiy mezonini hisoblanadi.

Adolat konsepsiyasining zamonaviy falsafiy-huquqiy tahlilida inson qadrini himoya qilish va jamiyatdagi tenglikni

amalda ta'minlash ustuvor vazifa bo'lib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, adolatni faqat nazariy tamoyil emas, balki o'lchab bo'ladigan va siyosiy qarorlar bilan uzviy bog'langan amaliy indikator sifatida tatbiq etish zarur. Buning uchun quyidagilar taklif etiladi;

–imkoniyatga asoslangan Adolat Indeksi" (IAA) ni joriy etish taklif etiladi. Bu indeks Sen–Nussbaumning "imkoniyatlar yondashuvi"ga tayangan holda, har bir insonning sog'liq, ta'lim, munosib mehnat, ijtimoiy himoya, xavfsizlik, sudga kirish, raqamli imkoniyat, ekologik barqarorlik, siyosiy ishtirok va mulk daxlsizligi kabi asosiy 10 ustun bo'yicha yashash sifatini baholaydi.

–"Roulz sinovi" asosida adolatni baholash va normativ siyosatni yo'naltirishdan iborat. Jon Roulzning "adolat sifatida adolat" g'oyasiga ko'ra, har qanday siyosiy va ijtimoiy qarorlar, birinchi navbatda, eng zaif aholiga qanday ta'sir ko'rsatishini hisobga olishi zarur. Shu maqsadda, muhim qarorlar va islohotlar amalga oshirilishidan avval "ijtimoiy ta'sir pasporti" orqali bu sinov o'tkaziladi. Ushbu yondashuv adolatni faqat formal tenglik emas, balki amaliy farovonlik va imkoniyatlar bilan bog'laydi. Natijada, adolat konsepsiyasi abstrakt ideal emas, balki raqamli ko'rsatkichlar, baholash usullari va siyosiy qarorlar bilan uyg'unlashgan faol falsafiy-huquqiy amaliyotga aylanadi.

ADABIYOTLAR

1. Aflotun. Davlat. – Toshkent: Yangi Asr Avlodi, 2024. – 512 b.
2. Аристотель. Политика. – Москва: Мысль, 1983. – 367 с.
3. Цитцерон Марк Туллий. Диалоги: О государстве; О законах / подгот. изд. И. Н. Веселовский. – Москва: Ладомир; Наука, 1994. – 224 с.
4. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri / tarj.: A. Irisov, M. Mahmudov; tahrir: M. Xayrullayev. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022. – 319 b.
5. Ibn Sino. Tib qonunlari: 5 jild. – Toshkent: "Sharq" NMAK, 2020.
6. Abu Homid G'azzoliy. Ihyo ulumiddin. – Toshkent: O'zbekiston, 2020. – 512 b.
7. Ibn Xaldun. Muqaddima. 3 jild. – Toshkent: Factor Press, 2025.
8. Августин Аврелий. О граде Божием. – Москва: Наука, 1998. – 654 с.
9. Фома Аквинский. Сумма теологии. – Москва: Мысль, 2005. – 731 с.
10. Гоббс Т. Левиафан, или Материя, форма и власть государства церковного и гражданского. – Москва: Мысль, 2001. – 478 с.
11. Локк Дж. Два трактата о правлении / пер. Е. С. Лагутина, Ю. В. Семенова. – 4-е изд. – Москва; Челябинск: Социум, 2020. – 496 с.
12. Руссо Ж.-Ж. Об общественном договоре. – М.: Канон-Пресс, 1998. – 310 с.
13. Кант И. Сочинения на немецком и русском языках. Т. 1: Трактаты и статьи – Москва: Ками, 1993. – 586 с.
14. Роулз Дж. Теория справедливости. – Новосибирск: Новосибирский ун-т, 1995. – 536 с.
15. Нозик Р. Анархия, государство и утопия. – М.: ИРИСЭН, 2008. – 431 с.
16. Макинтайр А. После добродетели. – М.: Академ. проект, 2000. – 384 с.
17. Сен А. Развитие как свобода. – М.: Новое издательство, 2004. – 432 с.
18. Nussbaum, M. Women and Human Development: The Capabilities Approach.
19. Cambridge: Cambridge University Press, 2000. – 328 p.